

JANUBIY SUG'DNING ARXEOLGIK YODGORLIKLARI VA ULARNING URBANISTIK TARAQQIYOTI

Nishonov Jamshid To'raqul o'g'li

QDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Janubiy Sug'dning arxeologik yodgorliklari va ularning urbanistik taraqqiyoti haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zi: *Sug'd, taraqqiyot, arxeologik yodgorlik, urbanistik taraqqiyot.*

Sug'd, So'g'd, Sug'ud – Markaziy Osiyodagi qadimiy tarixiy-madaniy viloyat. Ilk bor miloddan avval VII-VI asrlarda qadimiy „Avesto“da tilga olingan. Bu nom 20-asr boshlarigacha saqlangan. Turli manbalardagi So'g'da, So'g'uda, So'g'diyona nomlarining kelib chiqishi va ularning ma'nosi hozircha noma'lum. Sug'd so'zining ma'nosi fanda har xil talqin qilib kelinadi. Masalan, So'ch —So'z – „kuymoq, yonmoq, porlamoq“ deb izohlangan. Bundan Sug'dni „Muqaddas ilohiy olov (Zardushtiylik tasavvuriga ko'ra) bilan poklangan yer“ kabi ma'noda talqin etishga harakat qilingan (V. Tomashek). Yana bir izohga ko'ra, „Sug'd“ so'zi sernam, unumdor yer deb tushuniladi. Bunga hozirga qadar pastlik, suv yig'iladigan yer „S, Sug'ut“ deb nomlanishini dalil qilib ko'rsatiladi. Avestoda Sug'd mamlakat nomi sifatida bir marta uchraydi. „Ardivisura Yashti“ —(„Obon Yasht“) va Ardvi (Amudaryo) Ishkata, Paruta, Mouri, Suguda va Xvarazm tomon hayotbaxsh suvlarini eltadi, deya ta'kidlanadi. Avestoning Videvdat naskida esa Axuramazda yaratgan ezgu yurtlardan biri Gava deyiladi va u yerda sug'dlar yashaydi deb ko'rsatiladi.

So'g'diyonaning markazi Maroqanda shahri bo'lgan. Maroqandaning qoldiqlari – bu hozirgi Afrosiyob shahar xarobalaridir. Ahamoniylar davrida bu shaharning maydoni 219 gektardan iborat bo'lib, u mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi. Yunon tarixchilarining ma'lumotlariga qaraganda, Maroqandaning uzunligi 11 km ga yaqin bo'lgan tashqi devori va qo'rg'oni bo'lgan. So'g'diyonaning markaziy shaharlari qatoriga Qarshi atrofidagi Yerqo'rg'on, Qashqadaryoning sharqiy qismidagi Uzunqir yodgorliklarini ham kiritish mumkin. Bu yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimgi So'g'diyona aholisining xo'jaligi va madaniyatini chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

„Avesto“ning „Yasht“ kitobida tilga olingan „So'g'd makoni Gava“ So'g'diyonaning eng qadimgi viloyati bo'lishi mumkin. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Gava (Gau) – „buqa“, „poda“ degan ma'nolarini bildirib, u Qashqadaryo vohasi bilan bog'lanadi. Bu so'z viloyatning juda ko'p geografik nomlarida

takrorlanib saqlangan. Qadimgi yunon tarixshunoslari So'g'diyonani Baqtriya yoki sak-massagetlariga nisbatan kamroq tilga olganlar. Makedoniyalik Iskandar yurishlaridan so'ng So'g'diyona haqida ma'lumotlar ancha to'liqroq bo'lib, kengayib boradi[2]. So'g'diyona – bu Zarafshon, Qashqadaryo vohalarida joylashib, janubi-sharqda Baqtriya va shimoli-g'arbda Xorazm bilan chegaradosh bo'lgan. Qadimgi zamonlarda ham So'g'diyona muhim savdo yo'llarining chorrahasida joylashgan. So'g'diyona haqida „Avesto“, Gerodot va Ahamoniylar davri yozuvlarida ma'lumotlar berilgan.

Miloddan avval VI asrda Ahamoniylar sulolasi vakillarining qoyatosh xotiro bitiklarida Suguda shaklida qadimiy Eron saltanatiga tobe qilingan satrapliklardan biri, mamlakat nomi sifatida qayd etilgan. Yunon manbalarida – Sogdianoy. Bu shakl yunonlar tomonidan so'z tarkibidagi – anaka – tegishlilik, mansublik ma'nosini bildiruvchi nisbat qo'shimchasini so'z o'zagiga qo'shib yuborishdan paydo bo'lgan. Xitoy manbalarida – Suli. Sug'd yozuvi yodgorliklari mamlakat nomini Sug'd yoki Sg'ud shaklida ko'rsatadi.

Sug'd mamlakati (poytaxti – Samarqand, 645—654 yillarda Kesh) 3 ta tarixiy-geografik hududni birlashtirgan. Samarqand Si, Buxoro Si va Kesh-Naxshab Si. Har 3 qism o'zaro tabiiy chegaraga ham ega edi: Zarafshon tog' tizmalari Samarqand va Kesh-Naxshab o'rtasini Karmanadan keyin Malik cho'li Buxoro va Samarqand Sini ajratib turgan.

Buyuk ipak yo'lining markaziy tarmoqlari Sug'd orqali o'tgan. Natijada Sug'd xalqaro savdo munosabatlarida muhim o'rin tuta boshlagan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab Sug'd savdogarlarining qishloqlari, shaharlarida esa ularning mahallalari paydo bo'lgan. Sug'diy tili xalqaro til rolini o'ynagan. Bu hol Xitoy sayyohlari tomonidan Sug'd chegaralari haqida noto'g'ri tasavvurlar hosil qilgan (Syuan Szan).

Miloddan avval II-I asrlardan boshlab Sug'd o'z mustaqilligini tiklashga kirishgan. Uning markaziy va mahalliy tangalari zarb qilina boshlagan. Sug'd asta-sekin har 3 qismni o'z atrofiga to'plagan konfederativ davlat uyushmasiga aylanib borgan.

Milodiy I-V asrlarda Sug'd kushonlar, xioniylar, abdallar, kidarlar ta'sirida bo'la turib, o'z nisbiy mustaqilligini saqlab keldi. Sug'd konfederatsiyasi milodiy VI asr o'rtalaridan VIII asr boshlarigacha siyosiy jihatdan kuchayib borgan. Arab istilosining boshlang'ich davridan (VIII asr 1-chorak), to Sug'd podshohi Turg'ar davri oxirigacha (738—759 yillar) Sug'd o'zining konfederativ xususiyatini saqlashga harakat qilgan. Turg'ardan keyin Sug'dda ixshidlik siyosiy hokimiyat tugab, mamlakat xalifalik tarkibiga singdirilgan.

IV-VIII asrlarda so'g'dlar Uzoq Sharq, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalari savdosida asosiy vositachi bo'lganlar va butun Buyuk ipak yo'li bo'ylab muntazam xalqaro karvon savdosini tashkil etganlar. So'g'd bu davrlarda bekliklar va erkin shaharlar hamdo'stligidan iborat bo'lgan va ular orasida Samarqand, Maymurg', Kesh, Naxshab, Ishtixon, Kushaniya, Buxoro, Amul va Andxoy ajralib turgan. Xitoygacha bo'lgan butun yo'l bo'ylab, janubdagi Xotan va Sharqiy Turkiston orqali Lob Nor va Yettisuv shimoligacha so'g'd mulkiy hududlari tarkib topgan va ular XII asrgacha mavjud bo'lgan. So'g'dlarning Turon va Xitoydagi eng yirik mulklari ularning alohida jamoalar bo'lib yashagan Kucha, Chanan, Lanchjou, Dunxuan, Loyan kabi shaharlarda mavjud bo'lgan. IV asrda Dunxuanning o'zida so'g'd jamoasi taxminan 1000 kishidan iborat bo'lgan. Samarqandning sharqiy darvozalari „Xitoy“ nomi bilan ataladi. Xalqaro savdo aloqalari Samarqand, Paykend va boshqa yirik shaharlardagi boy so'g'd uylari tomonidan nazorat qilinardi. Ular o'z vositachilari orqali kreditlar berishgan, savdo kelishuvlarini boshqarishgan. Tan sulolasi tarixida qayd etilishicha, Kan hukmdorligida „yangi tug'ilgan o'g'il chaqaloq shirinso'z bo'lishi hamda pulni mahkam ushlashi uchun uning tiliga tosh asal, kaftlariga esa yelim surtilgan. 20 yoshga to'lgan erkak xorijga ketgan va qaysi joyda manfaat ko'rsa, o'sha yerga borgan“. Olis safarlar, Chin, Hindiston, Eron, Kichik Osiyo xalq hunarmandchiligi va an'analari bilan tanishuv orqali G'arb va Sharq yutuqlarini o'zida mujassam etgan noyob va ochiq so'g'd madaniyati shakllangan. So'g'd hunarmandchiligi markazi va savdo yo'llari – Samarqand, Panjikent, Paykent, Buxoro va Varaxshi xavfsizligini ta'minlash ehtiyoji kuchli davlatlar bilan ittifoq tuzishga qaratilgan siyosiy yo'nalishni belgilab bergan. VI asrda So'g'd Eftaliylar davlati, keyinchalik Turk xoqonligi tarkibiga kirgan, 630-yildan buyon esa Chinning Tan sulolasi hukmdorligini tan olgan. Xoqonlik yuksalishi davrida so'g'dlar turkiylarning Xitoydan o'lpon sifatida olgan shoyi bilan savdo qilish imkoniyatiga ega bo'lishgan. VI asr 70-yillarida turkiy hukmdorlar farmoni bilan so'g'd savdogari Maniakh savdo kafolatlari yuzasidan muzokaralarni avvaliga Eron Shahanshoi, so'ngra Vizantiya imperatori bilan olib borgan. O'rta asrlarda so'g'd tili Buyuk ipak yo'lidagi asosiy muloqot tiliga aylangan. Buddaviylar, nasroniylar, manixeylar o'zlarining diniy matnlarini so'g'd tiliga tarjima qilishgan. Bunda ular o'zlarining yozma an'alaridan foydalanishgan: buddistlardan hind alifbosi, manixeylardan arameys bosmasi, nasroniy-suriyaliklardan dastlabki umumiy maktubot, nestoriyan va yakovitlardan diniy e'tiqod alifbolarini o'zlashtirishgan. Ammo ular aramey alifbosiga asoslangan va keyinchalik uyg'urlar tomonidan foydalanilgan ilk so'g'd yozuvi o'rnini egallay olmadi. Mazkur yozuv namunalari bilan Dunxuandagi mulkiy

hududlardan yo'llangan „ko'hna maktublar“ va Zarafshon vodiysidagi Mug tog'ida topilgan hujjatlar yordamida tanishish mumkin. VIII asr boshida So'g'd Qutayba ibn Muslimning musulmon qo'shinidan mag'lubiyatga uchraydi va halifalikka itoat etgan holda islom dinining jug'rofiy-siyosiy makonida qudratli savdo-hunarmandchilik markazi bo'lib qoladi.

REFERENCES:

1. Sogdiyskiye teksty s gory Mug. Chteniye, perevod, kommentariy. Vypusk II. Yuridicheskiye dokumenty i pis'ma. Chteniye, perevod i kommentarii V. A. Livshitsa. M., 1962
2. Shishkina G. V., Suleymanov R. KH., Koshelenko G. A., Sogd // Arkheologiya SSSR. Drevneyshiye gosudarstva Kavkaza i Sredney Azii. Otv. red. G. A. Koshelenko. Moskva: Nauka, 1985
3. Smirnova O. I., Ocherki iz istorii Sogda, M., 1971;
4. Ishoqov M., Sug'diyona tarix chorrahasida, T., 1990;
5. Ishoqov M., Unutilgan podsholikdan xatlar, T., 1992;
6. Горшкова, Е. А., & Акбаров, А. Н. О. (2021). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АНТИКОРРУПЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ В СОВРЕМЕННОЙ РОССИИ. In Участие образовательных организаций в противодействии коррупции (pp. 43-48).
7. Джина, Ж., & Личман, Е. Ю. (2021). СКРИПИЧНОЕ ИСКУССТВО СОВРЕМЕННОГО КАЗАХСТАНА. Студенческий форум, 10.
8. Turgunov, E., Abdumajidov, I. B. O. G., Anvarov, A. A. O. G., & Valiev, R. A. O. G. (2022). MOYLASH MATERIALLARINING QOVUSHQOQLIK XUSUSIYATLARIGA HARORAT TA'SIRINI O'RGANISH. Academic research in educational sciences, 3(1), 419-425.
9. Salmonov, A., & Saidov, I. (2021, June). THE POLICY OF THE SOVIET AUTHORITIES IN THE TURKESTAN ASSR TO RESTRICT WAQF PROPERTY (BASED ON MATERIALS FROM THE FERGANA VALLEY). In Конференции.
10. Тошпўлатова, С. К. (2022). МУСИҚИЙ ТЎГАРАКЛАР ФАОЛИЯТИДА ЎСМИРЛАРДА МИЛЛИЙ ҒОЯ ТУШУНЧАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАЗМУНИ. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 13(2), 83-86.
11. Akbarov, A. K. (2012). Communication Approach in English Through the Internet. Cambridge Scholars Publishing.
12. Рахимов, А. Ш. (2022). ҲАРАКАТ ХАВҒСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ҲАЙДОВЧИНИНГ МАҲОРАТИ. Conferencea, 151-154.

13. Рахимов, А. Ш., & Алирзаев, И. Ш. О. (2018). СОВМЕСТНЫЙ РАСЧЕТ НАДЗЕМНОЙ КОНСТРУКЦИИ С ГРУНТОВЫМ ОСНОВАНИЕМ НА СЕЙСМИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ. Студент и наука, (2), 106-114.
14. Алирзаев, И. Ш. О., Сова, Н. С., Сухотерин, А. В., & Рахимов, А. Ш. (2018). ДИНАМИЧЕСКИЕ ИСПЫТАНИЯ ГРУНТОВ ПРИ ТЕХНИЧЕСКОМ ОБСЛЕДОВАНИИ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ. In Обследование зданий и сооружений: проблемы и пути их решения (pp. 5-12).